

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**Ta'linda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ularning  
ahamiyati**

**Osiyo xalqaro universiteti “Tarix va filioliya” kafedrasi assistenti  
Idiyeva Lola Ismatovna**

**Osiyo xalqaro universiteti Filologiya yo'nalishi 2-kurs 11FT (i)-23  
guruhi talabasi Sodiqova Shahrinoz Turg'unovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola so'nggi yillarda ishlab chiqilgan va ta'linda foydalaniadiladigan samarali innovatsion texnologik vositalar va tizimlar haqida ma'lumot beradi. Ularning pedagogik jarayonidagi ahamiyatini tadqiq etadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarning o'quvchilarni faollashtirish, individualizatsiya va shaxsiylashtirishdagi roli haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon, masofaviy ta'lim, darslik, o'qitish tizimi, interaktiv o'yinlar, sun'iy intellekt, virtuallik.

Ma'lumki bugungi XXI asr texnologiyalar asri desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Har bir sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ularning imkoniyatlarini keng jamoatchilikka tatbiq etish zamonamizning fenomenal hodisalardan biriga aylanmoqda .Ulardan nafaqat texnika yoki ishlab chiqarish, balki ta'lim –tarbiya jarayonlarida ham juda keng ravishda foydalanishmoqda .Ular yordamida nafaqat talabalarga bilimni oson yetkazish mumkin, balki yosh o'sib kelayotgan navqiron o'quvchilarga ham bilim berish jarayonida qo'llashmoqda. Bu esa bilimni oson va qiyinchiliksiz egallab maqsadga erishish yo'lini osonlashtirib beradi. Ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'qitish va o'rganish jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimlari, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, shuningdek, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etmoqda.

Biz innovatsiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularga amaliy qo'llab ko'rish imkoniyatini yaratib beramiz. |Ular nafaqat ularni o'rganadi, balki o'zлari ham o'rgangan narsalari orqali biror bir yangilik kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu imkoniyat yoshlarga yaratuvchanlik salohiyatini oshirishga yo'l ochadi. Davlatimiz tomonidan ham bugungi kunda juda kata o'zgarishlar amalga oshirimoqda .O'quvchilarga ta'lim jarayonida turli xil innovatsiyalardan foydalangan holda

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

yangilik kiritib turli interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarga darsni kreativ tarzda o'tishni va shu vositalar orqali o'quvchilarga mavzularni oson yetkazib berish uchun katta shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar, jumladan, elektron ta'lif platformalari, virtual va kengaytirilgan haqiqiylik, sun'iy intellekt, mobil ilovalar va o'quv dasturlari ta'lif jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, onlayn kurslar va masofaviy ta'lif platformalari talabalar uchun ta'lif olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu, ayniqsa, geografik yoki iqtisodiy cheklowlarga duch kelayotgan o'quvchilar uchun muhimdir.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi. "Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi." – degan edi mashhur pedagog A. Nikolskaya.<sup>1</sup>

Ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsad:

- o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish;
- o'quvchilarni fanga qiziqtirish;
- ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish;
- o'r ganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

Innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarni faollashtirish va ularning o'z-o'zini o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Misol uchun, interaktiv taqdimotlar, o'yinlar va simulyatsiyalar orqali o'quvchilar bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, shuningdek, o'quvchilar o'rtaida hamkorlikni rag'batlantiradi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalar, shuningdek, ta'lif jarayonini individualizatsiya qilishga yordam beradi. O'qituvchilar uchun analitik vositalar yordamida har bir o'quvchining muvaffaqiyatlarini kuzatish va kerakli yordamni taqdim etish imkoniyati yaratiladi. Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalari yordamida o'quv dasturlari har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ravishda taklif etilishi mumkin. Misol uchun,

---

<sup>1</sup> Алексеева, Л.Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/  
Л. Алексеева// Учитель. - 2009.

# **FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

masofaviy ta'lism (distance learning inglizcha) talabalarga qayerda bo'lishidan qat'i nazar, mustaqil ravishda ko'proq bilim olish imkonini beradi. Bu o'qituvchining doimiy nazoratisiz mustaqil ravishda o'qish, mashq qilish, berilgan ma'lumotlarni takrorlash va o'quv jarayoni uchun boshqa ko'plab foydali ishlarni bajarish imkonini beradi. Shuningdek, masofaviy ta'lism o'quvchilar va talabalarga vaqtadan unumli foydalanib, uylaridan chiqmasdan o'qish imkonini beradi.<sup>2</sup>

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, innovatsion texnologiya bu – ta'lism berishda ilmiy izlanishlarning o'zgacha yangi uslubi, hamda erishilgan bilim va ko'nikmalarini amalda tatbiq etishning oson yo'lidir. Bunday texnologiyalar, shuningdek, ta'limning sifatini oshirishga, o'qituvchilarning ishini yengillashtirishga va ta'lism tizimlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli, ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda nafaqat muhim, balki zaruriy hisoblanadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

<sup>1</sup> Алексеева, Л.Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л. Алексеева// Учитель. - 2009.

- 2 Nurmuxamad Duisenov, Bekjan Akhmedov , Chirchik state pedagogical institute, January 21, “Masofaviy ta'lism tizimi” 8-bet.
- 3 Cameron, L. *Teaching languages to young learners*. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Cristina Ferreira Pinto, Helena Soares. *Using children's literature in ELT. A story-based approach*.
5. Slattery, M. & Willis, J. *English for primary teachers*. Oxford University Press, 2001.
6. Khamraeva, Gulchehra Ibrakhimovna, Bafoyeva, Sayyora Ibrakhimovna, *Teaching Foreign languages to young learners through communicative games*

<sup>2</sup> Nurmuxamad Duisenov, Bekjan Akhmedov , Chirchik state pedagogical institute, January 21, “Masofaviy ta'lism tizimi” 8-bet.